



TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

Davlat tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi: psixolingvistik asoslari



Ushbu suratda nimani ko'ryapsiz?



Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Davlat tili haqida"gi Qonun o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, PF-5850-sonli Farmon esa davlat tilini o'qitish tizimini ilmiy asosda takomillashtirishni talab etadi. Bu jarayonni faqat huquqiy-me'yoriy emas, balki o'quvchi ongida kechayotgan psixologik-lingvistik mexanizmlarni chuqur anglagan holda tashkil etish zarur. Psixolingvistika — til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi fan sifatida, ikkinchi tilni o'qitish metodikasining ilmiy poydevorini tashkil etadi.



Maqsad

Tarbiyachi va o'qituvchilarda davlat tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning psixolingvistik asoslarini shakllantirish, hamda o'quvchilar nutqidagi interferension xatolarni tahlil qilish, til muhitini yaratish va motivatsiyani oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Nazariy asoslar

SLA, bilimgvizm,
motivatsiya
nazariyalari

Xatolarni tahlil qilish

Interferensiya va
tuzatish
strategiyalari

Amaliy mashqlar

Til muhiti va
motivatsiya
bo'yicha

Psixolingvistik asoslar



SLA nazariyalari

Krashen, Skinner, Selinker, Long — tilni o'zlashtirish nazariyalarining rivojlanishi.



Bilingvizm

Ikki tilni bilish darajalari va turlari (qo'shimcha, ayiruvchi, muvozanatli).



Interferensiya va transfer

Lado va Corder nazariyalari asosida xatolarni ilmiy tahlil qilish.



Til muhitini shakllantirish

Sinfda boy va tabiiy til muhitini yaratish omillari.



Ichki va tashqi motivatsiya

Integrativ va instrumental motivatsiyani rivojlantirish strategiyalari.



Umumiy maqsad

Grammatik qoidalarni yodlash emas, erkin nutqiy kompetensiyani shakllantirish.

Ikkinchi tilni o'zlashtirish nazariyalari

1

Bixevioristik yondashuv

Skinner (1957): takrorlash va mustahkamlash orqali to'g'ri nutqiy reaksiyalar shakllanadi.

2

Intertil nazariyasi

Selinker (1972): o'quvchi ongida o'ziga xos "oraliq til tizimi" shakllanadi.

3

O'zaro ta'sir gipotezasi

Til "mazmunni aniqlashtirish" — interaktiv jarayonlardan ta'sirlanish.

4

Pedagogik xulosa

Tushunarli til material ("i+1") va xotirjam muhit barqaror natija beradi.

Bilingvizm va uning turlari

Tuzilishi va turlari

Weinreich: koordinativ, subordinativ va aralash bilingvizm. Lambert: qo'shimcha (additive), ayiruvchi (subtractive) va muvozanatli (balanced) bilingvizm.

Yosh omili va amaliy ahamiyat

- Erta bilingvizm — sensitiv davrda boshlanadi
- Kech bilingvizm — o'smirlik yoshida boshlanadi
- Qo'shimcha bilingvizm strategik ahamiyatga ega
- Ona tili to'liq saqlangan holda davlat tili o'rgatiladi
- Ikkala til ham qadrlanadi va rivojlanadi
- Davlat tili — qo'shimcha resurs sifatida taqdim etiladi

Tillararo interferensiya va transfer



1

Fonetik daraja

O'zbek tilidagi o', g', q, h
tovushlari rus tilida
moslarisiz bo'lgani
uchun talaffuz xatolari.

2

Grammatik daraja

Agglyutinativ tuzilish
rus tilining flektiv
tuzilishidan farq qiladi.

3

Leksik daraja

So'zlarning ko'p
ma'noliligi va
frazologik
birikmalarning noto'g'ri
tarjimasi.

4

Corder xulosasi

Xato — salbiy hodisa
emas, til qurish
jarayonining tabiiy
dalili.

Til muhitini shakllantirish omillari

MIQDORIY OMIL

O'qituvchi darsda qanchalik ko'p va faol tarzda davlat tilida gapirsa, o'quvchi shunchalik ko'p tabiiy nutqqa duch keladi.

SIFATIIY OMIL

Til qanchalik ma'noli, kontekstga bog'liq va o'quvchi ehtiyojlariga mos ekanligi.

Til muhitini shakllantiruvchi omillar

O'qituvchi nutqining sifati va davomiyligi

Sinf tashqarisidagi til muhiti

Sun'iy immersiya elementlari

Ijtimoiy-psixologik muhit

O'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasi

Motivatsiya turlari

Gardner va Lambert (1972): integrativ motivatsiya (til jamiyatiga qo'shilish istagi) va instrumental motivatsiya (aniq amaliy maqsadlar).

Ichki motivatsiyani rivojlantirish

- O'quvchiga tanlov imkoniyatini berish
- Hayotiy va qiziqarli topshiriqlar tanlash
- Bosqichma-bosqich murakkablashuvchi mashqlar
- Xatolarga nisbatan xavfsiz muhit yaratish
- Geymifikatsiya va ijodiy loyihalar
- Tashqi motivatsiya — qo'shimcha vosita sifatida

Xatolarni bartaraf etish strategiyalari



Aniq tuzatish

Xato to'g'ridan to'g'ri ko'rsatiladi va to'g'ri variant beriladi.



Qayta shakllantirish

O'qituvchi xato gapni to'g'ri shaklda takrorlaydi, ochiq tuzatmasdan.



Aniqlashtirish so'rovi

“Kechirasiz, tushunmadim, qaytaring” kabi savol orqali qayta tekshirishga undash.



Metalingvistik fikr-mulohaza

Grammatik qoidaga ishora qilish: “Bu yerda qaysi kelishik kerak edi?”



Elitatsiya

Gapni tugallanmagan holda qoldirib, o'quvchining o'zi to'g'ri shaklni topishiga imkon berish.



Takrorlash

Xato qismni intonatsiya bilan ajratib takrorlash orqali e'tiborni xatoga qaratish.

Sinfda til muhitini yaratish topshiriqlari



Til burchagi

Sinfda davlat tilidagi kitoblar, plakatlar joylashtirilgan maxsus zona yaratish.



So'zlar devori

Har hafta yangi 15–20 ta so'z devorga osiladi, gap tuzish va sinonim topish.



Kun tili amaliyoti

Haftaning belgilangan kunlarida sinfda faqat o'zbek tilida muloqot qilish.



Dialog yaratamiz

Do'kon, kutubxona, shifoxona kabi mavzularda juftlikda suhbat tuzish.



Rolga kirish

O'quvchilar o'qituvchi, shifokor, jurnalist, sotuvchi rollarini ijro etadi.



Raqamli muhit

Telegram kanal orqali qisqa audio-video topshiriqlar almashish.

Motivatsiyani oshiruvchi amaliy mashqlar



“Kim tez?”

Berilgan soʻzlardan eng tez gap tuzish.



“Sirli quti”

Qutidagi rasm yoki predmet asosida hikoya tuzish.



“Davom ettir”

Oʻqituvchi gapni boshlaydi, oʻquvchi uni davom ettiradi.



“Intervyu”

Oʻquvchilar bir-biridan intervyu oladi.



“Top va tushuntir”

Rasm asosida predmetni topish va undan foydalanishni tushuntirish.



“Soʻz zanjiri”

Har bir oʻquvchi oldingi soʻzning oxirgi harfi bilan yangi soʻz aytadi.

SO‘Z QUTISI
KIM TEZ?
SIRLI QUTI





3 ta amaliy yo'nalish



**Xatolarni tahlil qilish va
bartaraf etish**



**Sinfda til muhitini
yaratish**



Motivatsiyani oshirish

Amaliy topshiriq: xatolarni tahlil qilish

Maqsad: real o'quvchi nutqi namunalari asosida xato turlarini aniqlash va tuzatish strategiyasini tanlashga o'rgatish.

Jihozlar: audio yozuv yoki yozma matn namunalari, tahlil jadvali

Fonetik xato

Grammatik xato

Leksik xato

Sabab

Strategiya

Bajarilish tartibi

- Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo'linadi
- Xato turi aniqlanadi (fonetik, grammatik, leksik)
- Mos tuzatish strategiyasi taklif etiladi
- Real o'quvchi nutqi namunasi tahlil qilinadi
- Xatoning sababi izohlanadi
- Natijalar umumiy muhokama qilinadi

Namunaviy topshiriq: “Til burchagi”

Maqsad: sinfda doimiy davlat tili muhitini yaratish. **Jihozlar:** kitoblar, plakatlar, soʻz kartochkalari.

Bajarilish tartibi

1. Sinfning bir burchagida maxsus zona ajratiladi
2. Davlat tilidagi kitoblar va plakatlar joylashtiriladi
3. Har hafta yangi soʻz va iboralar bilan yangilanadi
4. Natija: oʻquvchilar kundalik nutqda yangi soʻzlarni faol qoʻllay boshlaydi



Yakuniy xulosa

Davlat tilini ikkinchi til sifatida o'qitish — shunchaki grammatik qoidalar va so'z boyligini yetkazish jarayoni emas, balki o'quvchi ongida kechayotgan murakkab kognitiv, ijtimoiy va emotsional jarayonlarni hisobga oluvchi ilmiy asoslangan faoliyatdir. Samarali ta'lim jarayoni o'quvchining hozirgi bilim darajasini hisobga olgan, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitda, ma'noli muloqot orqali tashkil etilganda barqaror natija beradi. Ushbu mashg'ulotda taqdim etilgan amaliy mashqlar, topshiriq namunalari va strategiyalarni har bir o'qituvchi o'z sinfi ehtiyojiga moslashtirib, kundalik dars jarayonida izchil qo'llashi tavsiya etiladi.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!